



## CURCULIONIDAE OILASIGA MANSUB SITONA HUMERALIS STEPH TURINING MORFOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.A.Axmadjonova

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institute, o'qituvchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada *Sitona humeralis Steph* ning morfologik tuzilishi, jinsiy dimorfizmi, oziqlanish odatlari, ko'payish biologiyasi va populyatsiya dinamikasi o'r ganilganligi haqida so'z boradi. Maqolada yana *Sitona humeralis Steph* ning ekologik moslashuvchanligi, oziqlanish xususiyati va avlod qoldirish strategiyalari tahlil qilinib, uning tabiiy ekotizimdagi roli ilmiy asosda yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Sitona humeralis Steph*, fitofag, jinsiy dimorfizm, tuxum qo'yish, ekologik moslashuv, rivojlanish tsikli, populyatsiya dinamikasi.

**Kirish.** *Sitona humeralis Steph* Sitona urug'iga mansub bo'lib, bu turni **Jacob Christian Schaeffer** 1831 yilda tasvirlagan.

**Tarqalishi:** Slovkiya ([49.1N, 19.2E](#)), Rossiya ([44.2N, 40.6E](#)), Avstraliya ([48.3N, 16.4E](#)), Germaniya ([49.7N, 8.6E](#)), Italiya ([46.5N, 11.3E](#)), Buyuk Britaniya ([50.8N, 0.3E](#)).

### Adabiyot tahlili va metodologiya.

Ma'lumki, turli agrobiotsenozlarda muhim dominant turlarning zarar keltirish xususiyatlari, ularning iqtisodiy oqibatlari uzoq yillardan olimlarni tashvishga solib keladi. Agrotsenozlardagi hasharotlarning xilma-xilligi, tarqalishi, ekologiyasi va ularga qarshi kurash usullari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning ko'plab ilmiytadqiqot markazlari tomonidan olib borilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlari, Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida o'tkazilgan ekspeditsiyalar va izlanish natijalarining e'lon qilinishi bir asrdan oshdi. Shundan kelib chiqib, ilmiy natijalarni davrlar kesimida qiyosiy tahlil etish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

N.V. Plavilshchikov – tarixiy jihatdan Issiqko'l atrofi va Tyan-Shan tog'larida uzunburun qo'ng'izlar faunasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni bergen (1930–1950 yillar).

**Nedoshivina S.V.** – Turkmanistonning janubi-g'arbiy hududlarida uzunburun qo'ng'izlar populyatsiyasi va o'simliklar bilan bog'liqligi haqida ilmiy ma'lumotlar bergen (Chikatunov V.I., Nedoshivina S.V. (2006).

**Legalov A.A. (2010-yillar)** – Qirg'izistonning tog'li hududlarida uchraydigan Curculionidae turlari ro'yxatini aniqlash va ularning sistematikasini berish bilan shug'ullanган (Legalov A.A., 2010)

**Legalov A.A.** – Tojikistonning tog'li ekosistemalari (Pamir va Alay tizmalari)da joylashgan Curculionidae turlarini tasniflab bergen (Legalov A.A., 2010).

A.Xolliyev Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyatlarida dukkakli don ekinlar zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lib, tadqiqotlar davomida 34 turga mansub zararkunandalarni aniqlagan. Shulardan 23 turi no'xatda



uchratilgan (Xolliyev A va boshq., 2014). Shuningdek, asosiy zararkunandalar qatorida donxo'rlar (Bruchidae), tugunak uzunburunlar (Curculionidae)ni keltiradi, ularning biologik xususiyatlari hamda no'xat o'simligida g'o'za tunlaming zarar yetkazish darajasi bo'yicha izlanishlar olib borgan (Xolliyev A.T., 2018).

*Sitona humeralis* Steph Namangan viloyati Chodak ([40°57'35"N 70°45'47"E](#), 10.04.2024), Farg'ona viloyati, Toshloq tumani Bo'ston ([40°41'03"N 71°51'45"E](#), 04.05.2024), Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani, Yaypan ([40°35'42"N 70°88'74"E](#), 15.05.2025).

Tana shakli: cho'zilgan, biroz yassi. Tana uzunligi: 3,5 – 5,0 mm Rangi: kulrang yoki jigarrang, ustida mayin tukchalar bilan qoplangan. Tana qismi tukli bo'lib, har xil yoritishda kul-jigarrang tusda ko'rindi. Elytralar (qattiq qanotlar) bo'ylab uzunchoq chiziqlar (qatlamalar) mavjud. Boshi kichik, buruncha (rostrum) shaklida oldinga cho'zilgan – bu Curculionidae oilasining tipik belgisi. Ko'zlari: katta, yon tomonda joylashgan, murakkab ko'zlar. Antennalari: tizzasimon bukilgan, 11 bo'g'imli, rostrumning o'rtasidan chiqadi. Elytralar tana orqa qismini to'liq yopib turadi. Ular ustida 9–10 ta yengil ajralib turuvchi bo'ylama qatamlar (strelar) mavjud. Har bir qatlamda nozik nuqtachalar va tukchalar bor. Oyoklar 3 juft, har biri 5 bo'g'imli. Rangi: och jigarrangdan to'q kulranggacha. Orqa oyoqlari boshqa juftlarga nisbatan biroz uzunroq, harakat uchun moslashgan. Erkaklar biroz kichikroq va harakatchanroq bo'ladi. Ayollar kattaroq va qorni kengroq – tuxum ko'tarish uchun moslashgan.

#### Rivojlanish biologiyasi.

Qishlov bosqichi: kattalar (imago) bosqichida tuproqda o'tadi. Bir yilda 1 avlod beradi. Tuxum qo'yish: urg'ochilar tuxumlarini tuproq yuzasiga yoki o'simlik tagiga qo'yadi. Lichinka bosqichi: tuproqda, o'simlik ildiz tiganaklarini kemirib oziqlanadi. G'umbak bosqichi: tuproqda kechadi. Kattalar (imago) esa asosan barglarni kemirib oziqlanadi.

Rasm muallifi: Axmadjonova Muxlisaxon,

Farg'ona viloyati, Toshloq tumani Bo'ston



([40°41'03"N 71°51'45"E](#))

**04.05.2024**

**1-rasm. *Sitona humeralis* Steph**

Bioekologiyasi: oligofag. Lichinkalari rizofag. Dukkakdoshlar nihollik davrida, o'simlikning yashil qismi bilan oziqlanadi.



Issiq va mo'tadil iqlimli hududlarda rivojlanishga moslashgan. Optimal harorat: +20 °C – +27 °C. Faollik boshlanishi: bahorda, havo harorati +10 °C dan oshganda. Qurg'oqchilik va issiqlikka nisbatan ancha chidamli.

Jarayon	Harorat oralig'i	Izoh
Faollik boshlanishi	+10 °C dan yuqori	Bahor o'rtasidan boshlab imago harakatchan bo'ladi.
Optimal rivojlanish harorati	+20 °C – +26 °C	Oziqlanish, ko'payish va lichinka rivoji uchun eng qulay.
Minimal rivojlanish chegarasi	~+10 °C	Harorat bu qiymatdan past bo'lsa rivojlanish sekinlashadi.
Faollik susayadigan harorat	+30 °C dan yuqori	Issiqda faolligi pasayadi, stress holati yuzaga keladi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, *Sitona humeralis* oligofag bo'lib, dukkakli o'simliklar bilan oziqlanadi. Qishlov bosqichi: kattalar (imago) bosqichida tuproqda o'tadi. Bir yilda 1 avlod beradi. Optimal harorat: +20 °C – +27 °C. Faollik boshlanishi: bahorda, havo harorati +10 °C dan oshganda. Qurg'oqchilik va issiqlikka nisbatan ancha chidamli.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Холлиев А.Т. Дуккакли дон экинлари (нұхат, мош, ловия) зааркунандаларига қарши кураш усулларини ишлаб чиқиш: қ/х. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. –Тошкент, 2018. – 42 б.
- Холлиев А.Т., Ахмеджанова К. А, Махмудов М. Дуккакли дон экинларининг илдиз зааркунандалари. //Агрокимё ҳимоя ва ўсимликлар карантини журнали. – Тошкент, 2021. -№4. – Б.17-19.
- Ю. В. Белявский, с. В. Филоненко распространение свекловичного (амарантового) долгоносика-стеблееда (*Lixus subtilis*)- Белорусской Государственной Сельскохозяйственной Академии 2018 №3 <https://elc.baa.by/vestnik/vestnik2018-3/vestnik2018-3>
- Alonso-Zarazaga MA, Lyal CHC (2009) A catalogue of family and genus group names in Scolytinae and Platypodinae with nomenclatural remarks (Coleoptera: Curculionidae). Zootaxa 2258
- Alonso-Zarazaga, M.A.; Barrios, H.; Borovec, R.; Bouchard, P.; Caldara, R.; Colonnelli, E.; Gultekin, L.; Hlavač, P.; Korotyaev, B.; Lyal, C.H.C.; et al. Cooperative Catalogue of Palaearctic Coleoptera Curculionoidea. Monogr. Electron. SEA 2017, 8, 729.
- Averenskiy, A.I. // The Catalogue of Beetles of Yakutia // Yakutsk Scientific Center SD RAS Publ.: Yakutsk, Russia, 1999; p. 96.